



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	

TALABALARNI STULDA O'TIRGAN QIYOFACHI PORTRETI RANGLAVHASINI ISHLASHGA O'RGATISH METODIKASI

Sadatov Chori Xolmuradovich

Termiz davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portretining ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda portret janrining tasviriy san'atdagi o'rni, qiyofachining tashqi ko'rinishi, plastik-anatomik tuzilishi, nisbatlari, kompozitsion joylashuvi hamda rang va tus munosabatlarini to'g'ri ifodalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarni naturadan kuzatish, shakl va hajmi yorug'-soya yordamida tasvirlash, kolorit yechimlarini topish, obrazning xarakterini ochib berish hamda ranglavhada badiiy ifodaviylikka erishish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada portret ishlash jarayonida uchraydigan xatolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda amaliy mashg'ulotlarda samarali foydalaniladigan pedagogik usullar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: portret, qiyofachi, ranglavha, tasviriy san'at, metodika, kompozitsiya, nisbat, yorug'-soya, kolorit, badiiy obraz, naturadan ishlash, anatomik tuzilish.

Abstract: This article analyzes the methodology of teaching students to create a painted portrait of a sitter seated on a chair. The study highlights the role of the portrait genre in fine arts, the accurate depiction of the model's external appearance, plastic-anatomical structure, proportions, compositional placement, as well as color and tonal relationships. It also provides methodological recommendations for developing students' skills in observing from nature, depicting form and volume through light and shadow, finding coloristic solutions, revealing the character of the image, and achieving artistic expressiveness in painting. In addition, the article examines common mistakes encountered in portrait painting, ways to eliminate them, and effective pedagogical methods used in practical classes.

Key words: portrait, sitter, painting, fine arts, methodology, composition, proportion, light and shadow, color harmony, artistic image, working from nature, anatomical structure.

Аннотация: В данной статье анализируется методика обучения студентов выполнению живописного портрета натурщика, сидящего на стуле. В исследовании раскрываются вопросы значения жанра портрета в изобразительном искусстве, правильной передачи внешнего облика модели, пластико-анатомического строения, пропорций, композиционного размещения, а также цветовых и тональных отношений. Наряду с этим разработаны методические рекомендации по формированию у студентов навыков наблюдения с натуры, изображения формы и объема с помощью светотени, поиска колористического решения, раскрытия характера образа и достижения художественной выразительности в живописи. В статье также анализируются типичные ошибки, возникающие при выполнении портрета, пути их устранения и педагогические методы, эффективно применяемые на практических занятиях.

Ключевые слова: портрет, натурщик, живопись, изобразительное искусство, методика, композиция, пропорция, светотень, колорит, художественный образ, работа с натуры, анатомическое строение.

KIRISH

Odam gavdasining turli ko'rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasining tuzilishi, anatomiya hamda o'ziga xos shakl-shamoyilini o'rganishni, plastik yechimni topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami yoki yoshmi, uning gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamsurat orqali chizib o'rganish kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl hamda rang-tus munosabatlarini o'quv mashg'ulotida ishlangan portret ranglavhalari asosida tahlil qilib o'rganish lozim. Shundan so'ng eng maqbul, chiroyli va ko'zga yaxshi tashlanadigan nuqtadan turib tasvirni qog'ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi hamda kompozitsiya tomonlari puxta o'ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl va rang uyg'unligiga ham alohida e'tibor qaratilishi, mutanosiblik barcha unsurlarda o'z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo'lagi rangi hamda soya-yorug'lik holatida namoyon etiladi.



Odam gavdasi uning soya va yorug' joylarini yaxlit qilib, ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko'rsatishga yordam beruvchi unsurlar – yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang koloritlari ham muvofiq tarzda ko'rsatiladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni "nyuans"lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o'zgarishlarining juda kichik farqlari ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo'lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olinib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko'rinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o'zlashtirib olingani qo'l keladi. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo'yin hamda boshqa a'zolar bilan birgalikda uzviylikda tasvirlanadi. Shu jihatiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va konstruktiv jihatdan bog'lab ifoda etish ancha murakkab bo'lib, katta sa'y-harakatlar talab qiladigan mashg'ulotdir. Inson portreti shunday tasvirdirki, unda nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki dunyo va psixologik xususiyatlar ham ochib beriladi. Portret biror shaxsga xos bo'lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi va xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos fazilatlarni ham siymolarda haqqoniy ifodalab beradi. Insonning ichki kechinmalarini uning yuz tuzilishi, nigohi, yurish-turishi hamda kiyimida ko'rish mumkin. Portretning turli ko'rinishlari mavjud: samimiy portretlarda musavvir tor doira uchun ma'lum bo'lgan insonga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib, oshkora ifodalaydi; tantanavor portretlar esa ommaviy joylarga mo'ljallangan mashhur kishilar portretlaridir. Ularda tasvirlangan insonning ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o'rni hamda unga monand libos va interyer buyumlari ifodalanadi. Ijtimoiy portretlar keng doiradagi hamjamiyat yoki ijtimoiy sinfnin turmush tarzini aks ettiradi.

Psixologik portretlarda esa obrazning xarakteri yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi. Kompozitsiyaviy tuzilishi jihatidan portretlar ko'krak-kacha, belgacha, tizzagacha, butun qomat yoki ko'p qomatli bo'lishi mumkin. Musavvir o'zining portretini ishlagan bo'lsa, u avtoportret deb nomlanadi va bunday asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'ziga xos murakkab va shu bilan birga qiziqarli xarakterga ega bo'lib, uning xilma-xil obrazlarga boy hayoti portretda yetakchi o'rinni egallaydi. Portretda bosh va qo'lni bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega. Surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilishi kerak. Insonga xos xarakterini ifodalashda qo'l katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar qo'l imo-ishoralari orqali suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterini yoritishda yordam beradi. Portretda ko'z eng murakkab qismlardan biri bo'lib, o'ta aniqlikni hamda tafakkurni jamlashni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Ko'z qalb ko'zgusi" deyiladi xalq maqollarining birida. Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning yechimini topish uchun bir necha qoralama hamda tezkor rangli etyudlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarlik yaratilajak portretning kompozitsiyasini tanlab olishga, proporsiya va rang yechimlarining to'g'ri topilishiga yordam beradi. Detallarni ishlab chiqqandan so'ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylik, yaxlitlik va uyg'unlik ustida ish olib borilib, kekxa insonning psixologik portreti yaratiladi.





ladi. Portret ishlashda detallarning qanday ashyodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega. Ishni tugatgach, umumiy rang yechimi saqlandimi, xarakter topildimi, boshning hajmiy shakli o'z aksini topgan-topmaganligi diqqat bilan kuzatiladi. Taniqli musavvirlar yaratgan asarlar portret ishlashga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi. Ularning ishlarini kuzatar ekansiz, zahirida qandaydir ma'no yotganligini, xarakterning ochib berilishi va insonning ichki hissiyotlarini ilg'ab olish mumkin. O'tmishda Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt kabi buyuk musavvirlar portret janrida yuksaklikka erishganlar. Mashhur o'zbek musavvirlari Abdulhaq Abdulloyev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiyeu va ko'pgina boshqa rassomlar portret janrida samarali ijod qilishgan. Portret rangtasvirida insonning ichki tuyg'ularini yuzida ifodalashi rassomdan katta mahorat talab etadi. Yuqorida ismlari keltirib o'tilgan rassomlar ushbu vazifani yuqori darajada bajarganlar. Ushbu o'quv qo'llanma rassomlar ijodini keng yoritishga xizmat qiladi.



Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish jarayoni tasviriy san'at ta'limida murakkab, ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadigan metodik jarayon hisoblanadi. Chunki portret ishlashda talaba nafaqat inson tashqi qiyofasini tasvirlaydi, balki uning xakteri, ruhiy holati, plastikasini, anatomik tuzilishini va fazodagi holatini ham badiiy ifodalashi zarur bo'ladi. Ayniqsa, qiyofachining stulda o'tirgan holatda tasvirlanishi oddiy bosh portretga nisbatan murakkabroq bo'lib, bunda gavda harakati, tananing umumiy konstruksiyasi, qo'l-oyoqlarning joylashuvi, kiyim burmalari va fazoviy nisbatlarni to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, talabalar portret ranglavhasini ishlash jarayonida ko'pincha kompozitsion joylashtirish, bosh va tana nisbatlarini aniqlash, rang-tus munosabatlarini topish hamda yorug'-soya holatlarini ifodalashda qiyinchilikka duch keladilar. Bu holat, avvalo, naturani kuzatish ko'nikmasining yetarli

darajada shakllanmaganligi, inson anatomiyasi bo'yicha bilimlarning sayozligi hamda amaliy mashg'ulotlarda bosqichma-bosqich metodik yo'riqnomalarning to'liq qo'llanilmasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ranglavha darslarida portret ustida ishlashni boshlashdan oldin talabalarni qalamtasvir asosida konstruktiv tahlil qilishga, umumiy shakldan xususiy detallarga o'tishga va naturaning plastik tuzilishini idrok etishga o'rgatish lozim.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandiki, talabalar ko'pincha portretning tashqi o'xshashligini berishga ortiqcha e'tibor qaratib, obrazning badiiy ifodaviyligi va rangtasvirdagi yaxlitlikni ikkinchi planga tushirib qo'yadilar. Holbuki, ranglavhada faqat tashqi o'xshashlik emas, balki umumiy kolorit, muhit, yoritilish xakteri va modelning ichki holatini tasvirlash ham muhimdir. Shu bois amaliy mashg'ulotlarda talabalarga portretni "nusxa olish" emas, balki "obraz yaratish" sifatida tushuntirish metodik jihatdan samarali natija beradi. Stulda o'tirgan qiyofachi portretini ishlashda fazoviy ko'rish va perspektiv tafakkur alohida o'rin tutadi. Chunki bu holatda qiyofachining gavdasi frontal, yarim burilish yoki yonlama ko'rinishda bo'lishi mumkin. Har bir holatda stul, gavda, bosh va fon o'rtasidagi nisbatlar o'zgaradi. Talaba ushbu bog'liqliklarni to'g'ri anglamasa, tasvir sun'iy, nomutanosib va hayotiylikdan yiroq bo'lib qoladi. Demak, mashg'ulotlarda naturani turli nuqtalardan kuzatish, dastlabki qoramalar ishlash va bir necha kompozitsion yechimlarni solishtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Portret ranglavhasini o'qitishda ranglar bilan ishlash metodikasi ham muhim muhokama obyekt hisoblanadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'p hollarda yuz, qo'l va kiyim ranglarini tabiiy emas, shartli tarzda tasvirlashga moyil bo'ladilar. Bu esa naturadagi rang reflekslari, issiq va sovuq ranglar munosabati, yoritilgan va soya qismlaridagi nozik rang farqlarini yetarlicha anglamaslik bilan bog'liq. Shuning uchun ranglavha mashg'ulotlarida talabalarga avvalo umumiy koloritni topish, katta rang dog'lari bilan ishlash, so'ngra bosqichma-bosqich nozik rang o'tishlarini aniqlash metodikasi tavsiya etiladi. Mazkur mavzuni o'qitishda muammoli ta'lim, ko'rsatmalilik, bosqichli tahlil, taqqoslash va mustaqil ijodiy topshiriqlar metodlarining uyg'un qo'llanilishi ijobiy samara beradi. Ayniqsa, pedagog tomonidan naturadan ishlash jarayonini amaliy namoyish etish, xatolarni jamoaviy tahlil qilish va muvaffaqiyatli ishlangan talaba ishlarini namunaviy misol sifatida ko'rsatish o'quvchilarning tasviriy tafakkurini faollashtiradi. Shu bilan birga, har bir talabaning individual ko'rish qobiliyati, rang sezgirligi va ijodiy yondashuvini hisobga olish ham muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish tasviriy san'at ta'limining muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon talabalardan nafaqat naturani kuzatish, balki inson qomatining anatomik tuzilishini, nisbatlarini, fazoviy holatini, rang-tus munosabatlarini va badiiy obraz yaratish qonuniyatlarini chuqur anglashni talab etadi. Shuning uchun portret ranglavhasini o'qitish metodikasi izchil, bosqichma-bosqich va amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'un holda tashkil etilishi zarur.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stulda o'tirgan qiyofachi portretini ishlashda talabalarda kompozitsion joylashtirish, bosh va gavda nisbatlarini to'g'ri aniqlash, yorug'-soya munosabatlarini ifodalash, kolorit yaxlitligini saqlash hamda modelning xarakterli jihatlarini ochib berish bo'yicha muayyan qiyinchiliklar uchraydi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda qalamtasvir asosida konstruktiv tahlil, naturani kuzatish mashqlari, rang dog'lari bilan ishlash, ko'rsatmalilik, taqqoslash, muammoli ta'lim va individual yondashuv kabi metodlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, portret ranglavhasini ishlashga o'rgatish jarayonida talabalarni faqat tashqi o'xshashlikka emas, balki obrazning ichki mazmuni, emotsional holati va badiiy ifodaviyligiga e'tibor qaratishga yo'naltirish muhim metodik ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida talabalarda estetik did, rangni his etish qobiliyati, kuzatuvchanlik, tasviriy tafakkur hamda mustaqil ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Demak, talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, portret janri bo'yicha kasbiy mahoratini rivojlantirish va badiiy ijodga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmurodovich S. C. et al. O'quvchilarning chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va amaliy ahamiyati // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – № 2. – C. 189-192.
2. Садатов Ч. Обучение рисованию обнаженного мужского тела с передней стороны с карандашным рисунком // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – № 3/S. – С. 361-365.
3. Sadatov C. The importance of virtual museums in the formation of students' educational competencies on fine literacy // Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – Т. 1. – № 04. – С. 201-203.
4. Bahodirovna M. Z., Xolmurodovich S. C. Methodical interpretations on the organization of independent educational classes in the subject of painting // International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2020. – Т. 2. – № 11. – С. 24-27.
5. Sadatov C. K., Normatova G. Some species of experimental work that makes a teacher // European Conference on Education and Applied Psychology. – 2014. – С. 174-176.
6. Sadatov C. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ijodiy faolligini takomillashtirish texnologiyalari // Физико-технологическое образование. – 2022. – № 4.
7. Xolmurodovich S. C., Xolbozorovich Q. J. Theoretical fundamentals of study pen and general principles of drawing // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – № 10. – С. 709-716.
8. Садатов Ч. Х., Нарматова Г. Т., Хайдарова М. Б. Овладение графической деятельностью детей в средней общеобразовательной школе // Матрица научного познания. – 2020. – № 8. – С. 128-131.
9. Kholmurodovich S. C. The spiritual impact of fine arts on personal development and its place and significance today // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 2020.
10. Abduraximov L. X. et al. Muhandislik grafikasi va chizma geometriya fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil qilish texnologiyasi // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 63-66.
11. Садатов Ч. Х., Норматова Г. Т. Изобразительная деятельность дошкольников, ее использование в подготовке к обучению в школе // Вестник современной науки. – 2016. – № 9. – С. 122-125.
12. Садатов Ч. Х., Норматова Г. Т. Нетрадиционное обучение в школе // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – № 10-2. – С. 128-130.
13. Kholmurodovich S. C. Fundamentals of pencil and its goals // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 6-7.
14. Xolmurodovich S. C. Akvarel bo'yoqlar bilan ishlash texnika va texnologiyasi // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – № 4. – С. 261-264.
15. Abduraximov L. X. Bakalavriat yo'nalishi bo'yicha chizma geometriya fanidan mashg'ulotlar mavzusini va ularning ketma-ketligini maqsadli ishlab chiqish metodikasi // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – № 4. – С. 48-52.
16. Sadatov Ch. X. Amaliy badiiy bezak san'ati: o'quv qo'llanma. – Buxoro: "Buxoro Determinanti" MCHJ, 2023. – B. 50-58.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.